Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi nuqtai nazardan bunday kompetensiyaning ahamiyati yanada ortib boradi, chunki aynan boshlang'ich bosqichda kitobxonlikka munosabat, matnni his qilish, qahramonga hamdardlik, obrazli tafakkur, nutqiy obrazlilik, estetik did va ma'naviy sezgirlikning ilk poydevori qo'yiladi. Agar bo'lajak o'qituvchida adabiy kompetensiya chuqur va tizimli shakllanmagan bo'lsa, u o'quvchida kitobga muhabbat, badiiy fikrlash, mustaqil talqin qilish va mazmundan xulosa chiqarish kabi muhim sifatlarni rivojlantira olmaydi.

Ayni paytda raqamli muhit bola ongini faqatgina axborot bilan to'ldirib qo'ymaydi, balki unda qabul qilish sur'ati, diqqatning taqsimlanishi, vizual kodlarga moyillik, qisqa formatlarga o'rganish, interaktivlikka bo'lgan talab va tezkor fikr almashish ehtiyojini ham shakllantiradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogika va ta'lim texnologiyalari sohasidagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini, xususan, adabiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar bir necha konseptual yondashuvlar asosida shakllangan bo'lib, ular kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika, multimodal o'qitish hamda konstruktivistik ta'lim nazariyalariga tayangan holda rivojlanib bormoqda.

Avvalo, kompetensiyaviy yondashuv nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan olimlar - Noam Chomsky, Dell Hymes, Lev Vygotsky va Jerome Bruner tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, D. Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya tushunchasi keyinchalik adabiy kompetensiya



modelini ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qilgan. L.S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi esa o'quvchilarning adabiy matnni idrok etish va tahlil qilish jarayonida o'qituvchi va raqamli vositalarning vositachilik rolini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Adabiy kompetensiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha tadqiqotlarda badiiy matnni tushunish, interpretatsiya qilish va estetik baholash ko'nikmalarining integratsiyasi asosiy o'rin tutadi. Bu borada Umberto Eco, Roland Barthes hamda Wolfgang Iser kabi olimlarning ishlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning qarashlariga ko'ra, badiiy matnni o'qish jarayoni passiv emas, balki faol interpretativ jarayon bo'lib, o'quvchi matn mazmunini o'z tajribasi asosida qayta quradi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarda adabiy kompetensiyani rivojlantirishda interaktiv va raqamli metodlarning ahamiyatini oshiradi.

Raqamli ta'lim texnologiyalarining pedagogik jarayonga integratsiyasi masalalari George Siemens va Stephen Downes tomonidan ishlab chiqilgan konnektivizm nazariyasi doirasida keng yoritilgan. Ushbu nazariyaga ko'ra, bilimlar tarmoq shaklida mavjud bo'lib, ularni o'zlashtirish jarayoni raqamli muhitda aloqalar o'rnatish orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning adabiy kompetensiyasini rivojlantirishda elektron resurslar, onlayn platformalar, multimediya vositalaridan foydalanishning ilmiy asosini yaratadi.

Shuningdek, raqamli pedagogika va innovatsion texnologiyalarni ta'limga joriy etish masalalari Tony Bates, Mishra Punya va Matthew J. Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli orqali asoslab berilgan. Mazkur model pedagogik, texnologik va mazmuniy bilimlarning integratsiyasini nazarda tutadi va aynan shu integratsiya adabiy kompetensiyalarni samarali shakllantirishda muhim omil sifatida qaraladi.

Adabiy ta'limda multimodal yondashuvdan foydalanish masalalari ham zamonaviy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Bu borada Gunther Kress va Theo van Leeuwen tomonidan ishlab chiqilgan multimodal nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvga ko'ra, matn faqat yozma shaklda emas, balki tasvir, audio va video vositalar orqali ham ifodalanadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarda badiiy matnni turli formatlarda tahlil qilish va taqdim etish kompetensiyasini rivojlantirish imkonini beradi.

Mahalliy va MDH olimlarining tadqiqotlarida ham boshlang'ich ta'limda adabiy kompetensiyalarni shakllantirish, o'qish savodxonligini rivojlantirish va innovatsion metodlardan foydalanish masalalari keng yoritilgan. Xususan, o'zbek pedagog olimlari tomonidan o'qish darslarini integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etish, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot sifat jihatidan nazariy-metodologik va modellashtirish xarakterga ega bo'lib, unda kompetensiyaviy yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, faoliyatli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, mediapedagogik yondashuv hamda integrativ-didaktik yondashuvlar o'zaro uyg'unlikda qo'llanildi. Kompetensiyaviy yondashuv tadqiqotning asosiy konseptual poydevorini tashkil etib, adabiy kompetensiyani faqat bilimlar yig'indisi sifatida emas, balki qadriyat, bilim, amaliy harakat, raqamli vositalardan maqsadli foydalanish, mustaqil qaror qabul qilish va refleksiya bilan belgilanuvchi integrativ natija sifatida talqin qilish imkonini berdi. Tizimli-funksional yondashuv orqali model elementlarining tarkibiy qismlari, o'zaro bog'liqligi, iyerarxiyasi va dinamikasi belgilab olindi; faoliyatli yondashuv esa bo'lajak o'qituvchining adabiy matn bilan ishlash, ta'limiy kontent yaratish, dars loyihalash, bolalar kitobxonligini rag'batlantirish va baholash kabi kasbiy harakatlarini markazga qo'yish imkonini yaratdi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabaning individual tajribasi, qiziqishlari, estetik didi, raqamli savodxonlik darajasi va kasbiy o'zini anglash jarayonini hisobga olish zarurligini asosladi.

Mediapedagogik yondashuv esa badiiy matnning zamonaviy raqamli muhitda multimodal qabul qilinishi, ekran madaniyatining ta'siri, vizual va audiokodlar bilan munosabat, raqamli hikoyalash, elektron kitob, audiomatn, videokommentariy, onlayn muhokama, interaktiv taqdimot va sun'iy intellekt yordamida qo'llab-quvvatlanadigan tahlil kabi yangi fenomenlarni pedagogik tahlil qilishga xizmat qildi.

Integrativ-didaktik yondashuv esa adabiyot, ona tili, o'qish savodxonligi, bolalar psixologiyasi, pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalari, media ta'lim va baholash metodikasi o'rtasidagi fanlararo bog'liqlikni aniqlashda muhim bo'ldi. Tadqiqot usullari sifatida ilmiy manbalarni qiyosiy-tanqidiy tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni mazmunan talqin etish, pedagogik kategoriyalarning konseptual rekonstruksiyasi, ta'lim muhitidagi zamonaviy raqamli amaliyotlarni funksional tahlil qilish, modellashtirish, komponentli tuzilma yaratish, mezon va ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, ta'limiy vaziyatlarni proyeksiyalash hamda prognozli pedagogik dizayn usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida raqamli va innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida adabiy kompetensiyalarni rivojlantirishning struktura-funksional modeli ishlab chiqildi va u o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan olti blokdan tashkil topdi: maqsadli blok, konseptual-prinsipial blok, mazmuniy blok,

texnologik-protsessual blok, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar bloki va diagnostik-natijaviy blok. Maqsadli blokda modelning strategik maqsadi sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining badiiy matnni kasbiy-pedagogik nuqtai nazardan qabul qilish, talqin etish, o'quvchilar yoshiga mos adabiy material tanlash, uni an'anaviy va raqamli formatlarda samarali o'qitish, estetik-axloqiy mazmunni kommunikativ faoliyatga aylantirish hamda o'z metodik faoliyatini refleksiv baholay olish kompetensiyalarini kompleks shakllantirish belgilab qo'yildi. Ushbu strategik maqsad bir qator aniq vazifalarga ajratildi:

- adabiyot nazariyasi va bolalar adabiyoti bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish;
- adabiy matnni tahlil qilish va interpretatsiya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- raqamli vositalar yordamida adabiy mazmunni multimodal taqdim etish;
- boshlang'ich ta'lim uchun adabiy-metodik topshiriqlar va dars ssenariylari yaratish;
- o'quvchilarning kitobxonlik faoliyatini rag'batlantiruvchi interaktiv muhit tashkil qilish;
- axborot xavfsizligi, akademik halollik va raqamli etika talablariga amal qilish;
- o'z kasbiy o'sishiga nisbatan refleksiv munosabatni shakllantirish.

Konseptual-prinsipial blokda modelning amal qilish qonun-qoidalari belgilab berildi:

- *Birinchi tamoyil* - insonparvarlik va shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili bo'lib, unga ko'ra adabiy ta'lim texnologiyadan ustun qo'yilmaydi, balki texnologiya adabiy-estetik qabulni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.
- *Ikkinchi tamoyil* – milliylik va madaniy uzviylik tamoyili, ya'ni raqamli vositalarni qo'llash jarayonida milliy adabiy meros, bolalarga mos badiiy an'analar, xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlar asosiy mazmun qatlami sifatida saqlanadi.
- *Uchinchi tamoyil* - pedagogik muvofiqlik, ya'ni har bir raqamli vosita yoki innovatsion usul faqat didaktik maqsadga muvofiq bo'lganda qo'llaniladi; vosita maqsadni emas, maqsad vositani belgilaydi.
- *To'rtinchi tamoyil* - interfaollik va hamkorlik, ya'ni adabiy kompetensiya shaxsiy o'qish bilan cheklanmay, onlayn va oflayn muhokama, hammualliflik, jamoaviy tahlil va ijodiy taqdimot orqali shakllanadi.
- *Beshinchi tamoyil* - multimodallik, ya'ni matn, ovoz, video, tasvir, infografika, raqamli xarita, komiks, animatsiya va elektron portfolio kabi turli kodlar yordamida badiiy mazmunni ko'p qatlamli qabul qilish.
- *Oltinchi tamoyil* - inklyuzivlik va variativlik, ya'ni talabalarning raqamli tayyorgarlik darajasi, qabul qilish uslubi, estetik qiziqishi va ijodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda turli trayektoriyalarni taklif qilish.
- *Yettinchi tamoyil* - refleksivlik, ya'ni har bir ta'limiy faoliyat natijasida talaba o'z adabiy qabul qilish darajasi, pedagogik qarorlari va raqamli mahsulotining sifati haqida mulohaza yuritadi.
- *Sakkizinchi tamoyil* - akademik halollik va raqamli etika bo'lib, AI yordamchi vositalar, onlayn manbalar va tayyor kontentdan foydalanishda mualliflik, manba ko'rsatish, qayta ishlash va mustaqil fikrlash madaniyatiga qat'iy rioya qilishni nazarda tutadi.

Mazmuniy blok adabiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv mazmunini to'rt yirik modulga ajratib berdi:

- 1) nazariy-adabiy modul - janrlar, badiiy obraz, syujet, kompozitsiya, til va uslub, bolalar adabiyoti spetsifikasi, o'qish psixologiyasi;
- 2) interpretatsion-kommunikativ modul - matn tahlili, savol qo'yish, mulohaza bildirish, qahramonga munosabat, adabiy munozara, retsenziya, esse, og'zaki va yozma taqdimot;
- 3) metodik-konstruktorlik modul - dars loyihalash, adabiy material asosida mashqlar va topshiriqlar tuzish, baholash mezonlari yaratish, bolalar kitobxonligi muhitini tashkil etish;
- 4) raqamli-kreativ modul - elektron kitoblar bilan ishlash, raqamli hikoyalash, podkast, videofragmentli tahlil, interaktiv viktorina, virtual kitob klubi, onlayn muhokama, elektron portfolio va AI yordamida g'oyalar generatsiyasi, lekin tanqidiy saralash bilan.

Texnologik-protsessual blok modelning "harakatlantiruvchi mexanizmi" sifatida xizmat qiladi va u adabiy kompetensiyani rivojlantirishning to'rt bosqichini qamrab oladi.

- *Birinchi bosqich* - propedevtik-diagnostik bosqich bo'lib, unda talabalarning kitobxonlik tajribasi, badiiy matnni anglash darajasi, nutqiy ifodaliligi, metodik tasavvurlari va raqamli savodxonlik ko'rsatkichlari aniqla-



nadi; shu bilan birga adabiy kompetensiyaning tarkibi, uning bo'lajak o'qituvchi kasbidagi ahamiyati va raqamli ta'lim muhitidagi o'rni tushuntiriladi. Bu bosqichda diagnostik so'rovnomalar, kirish esselari, matn bo'yicha og'zaki mulohaza, elektron anketa va kichik raqamli topshiriqlar qo'llanishi maqsadga muvofiq.

- *Ikkinchi bosqich* - loyihaviy-texnologik bosqich bo'lib, unda talabalar adabiy materialni raqamli va innovatsion formatlarda qayta ishlashni o'rganadilar: masalan, ertakka audioilova yaratish, hikoya qahramoni nomidan blog yozish, she'r matnini vizual-kompozitsion taqdimotga aylantirish, asarning g'oyaviy markazini infografika orqali ifodalash, raqamli taymlayn tuzish, qahramonlar o'rtasidagi munosabatni konseptual xarita ko'rinishida modellashtirish, elektron test va geymifikatsiyalangan topshiriqlar tuzish.
- *Uchinchi bosqich* - integrativ-amaliy bosqich bo'lib, unda talaba to'plagan bilim va ko'nikmalarini boshlang'ich ta'lim metodikasi bilan bog'laydi, ya'ni muayyan sinf uchun adabiy material tanlaydi, dars ishlanmasi tuzadi, raqamli resurslar paketi yaratadi, interfaol faoliyat turlarini belgilaydi, o'quvchi javoblarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi va mikrota'lim shaklida namoyish qiladi.
- *To'rtinchi bosqich* - refleksiv-korreksion bosqich bo'lib, unda talaba o'z ishlanmalarini tahlil qiladi, tengdoshlar va o'qituvchi fikrlarini inobatga oladi, raqamli mahsulot va metodik echimlarini qayta ko'rib chiqadi, o'zida qaysi komponent kuchli yoki zaif ekanini anglaydi va shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilaydi.

Diagnostik-natijaviy blokda adabiy kompetensiyaning shakllanganlik mezonlari va darajalari ishlab chiqildi.

Mezonlar sifatida: motivatsion-qadriyatli mezon (adabiyotga qiziqish, kitobxonlik motivi, estetik ehtiyoj), kognitiv mezon (nazariy bilimlar va tushunchalarni o'zlashtirish), interpretatsion mezon (matn mazmuni va g'oyasini anglash, tahlil qilish, obrazli fikrlash), kommunikativ mezon (og'zaki va yozma mulohazaning mantiqiyliigi, izchilligi, ta'sirchanligi), metodik mezon (adabiy materialni o'qitishga moslashtirish, topshiriq va dars loyihalash), raqamli-didaktik mezon (elektron vositalardan maqsadli foydalanish, multimodal kontent yaratish), kreativ mezon (ijodiy qayta ishlash, yangi echim taklif qilish), refleksiv mezon (o'z faoliyatini baholash va tuzatish) belgilandi.

Rivojlanish darajalari to'rt bosqichda ifodalandi:

- reproduktiv daraja - talaba tayyor sharh va namuna asosida ishlaydi, mustaqil talqin va raqamli echim taklif qilishda qiynaladi;
- konstruktiv daraja - muayyan shablon va yo'riqnoma asosida maqsadli tahlil va oddiy raqamli topshiriqlarni bajara oladi;
- produktiv daraja - mustaqil tahlil qiladi, metodik jihatdan to'g'ri va raqamli vositalar bilan boyitilgan ta'limiy mahsulot yaratadi;
- kreativ daraja - adabiy, metodik va raqamli elementlarni integratsiya qilib, original, pedagogik jihatdan asoslangan va estetik jihatdan ta'sirchan echimlar ishlab chiqadi.

Modelning tashkiliy-pedagogik shartlari ham aniqlandi:

- o'quv rejasida adabiy-metodik va raqamli modullar integratsiyasini ta'minlash;
- o'qituvchilarning raqamli va mediapedagogik tayyorgarligini kuchaytirish;
- elektron kutubxona, audio-video arxiv, bolalar adabiyoti bazasi va ta'lim platformalariga barqaror kirishni ta'minlash;
- mini-studiya, interaktiv auditoriya, gibrud muhit kabi infratuzilmaviy imkoniyatlarni yaratish;
- akademik halollik bo'yicha aniq qoidalar joriy etish;
- amaliyotchi o'qituvchilar bilan hamkorlikda mikrodarslar va keyslar tashkil etish.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, adabiy kompetensiyani rivojlantirishda raqamli texnologiyalar faqat taqdimot vositasi sifatida emas, balki qabul qilishni chuqurlashtiruvchi, muhokamani faollashtiruvchi, vizual-obrazli fikrlashni rag'batlantiruvchi, bolalar adabiyotini yoshga moslashtiruvchi va bo'lajak o'qituvchining metodik kreativligini oshiruvchi mexanizm sifatida qaralganda samaradorlikka erishiladi. Shunga ko'ra, model pedagogik ta'lim tizimi uchun metodik, tashkiliy va baholash jihatlarini o'zaro bog'lagan yaxlit echim sifatida tavsifiya etildi.

Ishlab chiqilgan model mazmunini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, adabiy kompetensiyani rivojlantirish jaryonini raqamli va innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan boyitish faqat tashqi modernizatsiya emas, balki adabiy ta'limning ichki mantig'ini qayta tashkil etishni talab qiladi. Chunki an'anaviy sharoitda adabiy kompetensiya ko'proq matnni o'qish, mazmunni qayta so'zlash, qahramonlarga tavsif berish va oddiy xulosa chiqarish bilan

cheklangan bo'lsa, raqamli muhitda u qabul qilish formatlari, muloqot uslublari va bilimni ifodalash vositalarining keskin kengayishi ta'sirida yangi mazmun kasb etadi.

Bugungi talaba matnni faqat bosma ko'rinishda emas, balki elektron kitob, audiomatn, animatsion fragment, podkast, interaktiv platforma, ijtimoiy muhokama formati, vizual taqdimot va hatto sun'iy intellekt yordamida berilgan qo'shimcha kontekst orqali ham qabul qiladi. Ammo shu bilan birga, aynan raqamli muhit adabiy ta'lim oldiga jiddiy xavflarni ham qo'yadi: qisqa formatlar hukmronligi badiiy tafakkurning chuqurlik darajasini kamaytirishi, vizual kodlar ustunligi so'zning estetik qiymatini soya ostida qoldirishi, tayyor sharhlar mavjudligi mustaqil talqin ehtiyojini susaytirishi, AI yordamchi vositalardan tanqidiy nazoratsiz foydalanish esa mustaqil fikrlash o'rniga algoritmik stereotiplarga suyanuvchi "qulay" yondashuvni kuchaytirishi mumkin. Shu bois mazkur model texnologiyani adabiyotga qo'shimcha emas, balki nazorat qilinadigan pedagogik sharoit sifatida ko'radi. Bu erda asosiy masala "qaysi dasturdan foydalanish" emas, balki "qaysi pedagogik maqsad uchun, qaysi bosqichda, qaysi tipdagi matn bilan, qaysi yosh psixologiyasi va qaysi baholash mezonlari bilan" foydalanishdir. Masalan, raqamli hikoyalash texnologiyasi faqat chiroqli animatsiya yaratish vositasi bo'lib qolsa, u adabiy kompetensiyani chuqurlashtirmaydi; ammo u qahramon nuqtai nazarini o'zgartirish, syujetning axloqiy qarama-qarshiliklarini anglash, badiiy detalni vizual talqin qilish, o'quvchiga ta'sir etuvchi kompozitsion echimni tanlash kabi vazifalar bilan bog'lansa, u kreativ va interpretatsion kompetensiyaning kuchli vositasiga aylanadi.

Xuddi shuningdek, elektron portfolio ham oddiy fayllar to'plami sifatida yuritilsa, undan metodik foyda kam bo'ladi; ammo u talabanning kitobxonlik kundaligi, matn tahlili, podkast tajribasi, mikrodars ssenariysi, refleksiv essesi, tengdosh fikrlari va o'z bahosi bir joyga yig'iladigan rivojlanish xaritasiga aylantirilsa, u refleksiv va diagnostik salohiyatga ega bo'ladi.

Model muhokamasi jarayonida yana bir muhim jihat ayon bo'ladi: adabiy kompetensiyaning pedagogik qiymati uning to'g'ridan-to'g'ri boshlang'ich sinf o'quvchisi faoliyatiga translyatsiya qilina olishi bilan o'lchani. Demak, talabanning o'zi matnni yaxshi tushunishi etarli emas; u bu tushunchani bola tiliga aylantira olishi, murakkab estetik g'oyani yosh xususiyatiga mos soddalashtira olishi, qahramon xarakteri orqali axloqiy muammoni bolalar muhokamasiga chiqara olishi, adabiy mazmun asosida nutqiy, ijodiy, kommunikativ va tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil eta olishi kerak. Shu nuqtai nazardan, taklif etilgan model adabiy kompetensiyani filologik teranlik bilan metodik transformatsiya qobiliyatining birligi sifatida tushunadi. Bu juda muhim, chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi universitetda olingan adabiy bilimni mexanik ko'chirib qo'ymaydi; u uni bola qabul qilish psixologiyasi, darsning maqsad va vazifalari, sinfning kommunikativ muhiti va raqamli resurslar imkoniyatlari bilan qayta ishlab, yangi ta'limiy mahsulotga aylantiradi.

Model shuni ham ko'rsatadiki, raqamli muhit adabiy ta'limni demokratiklashtirish va individuallashtirish imkonini kengaytiradi. Onlayn muhokama platformalarida tortinchoq talabalar ham yozma fikr bildirish orqali faollashishi, audioformatlar turli qabul uslubiga ega talabalar uchun qo'shimcha sharoit yaratishi, vizual xaritalar va infografikalar abstrakt badiiy munosabatlarni konkretlashtirishi, adaptiv testlar esa mavjud tayyorgarlik darajasiga ko'ra farqlangan yo'l xaritalari tuzish imkonini berishi mumkin. Biroq bu imkoniyatlardan foydalanish uchun oliy ta'lim muassasasidagi o'qituvchi o'zi ham raqamli kompetensiyaning yuqori darajasiga ega bo'lishi, texnologiyani maqsadga muvofiq tanlay olishi, axborot xavfsizligi va etika masalalarini bilishi, talabalarni mustaqil fikrlashga undaydigan topshiriqlar tuzishi kerak.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, raqamli va innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida adabiy kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogik ta'limning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning echimi faqat ayrim raqamli vositalarni darsga kiritish bilan emas, balki maqsad, mazmun, texnologiya, baholash va refleksiyaning o'zaro uyg'unligini ta'minlaydigan yaxlit modelni ishlab chiqish bilan bog'liq ekani asoslandi.

Tadqiqot jarayonida adabiy kompetensiyaning motivatsion-qadriyatli, kognitiv, interpretatsion, kommunikativ, metodik-amaliy, raqamli-didaktik, kreativ va refleksiv komponentlardan iborat integrativ tabiati ochib berildi hamda ushbu komponentlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi struktura-funksional model taklif etildi. Model bo'lajak o'qituvchining badiiy matnni anglash va talqin qilish qobiliyatinigina emas, balki uni boshlang'ich ta'lim jarayoniga pedagogik jihatdan moslashtirish, raqamli formatlarda qayta ifodalash, o'quvchilarning kitobxonlik faoliyatini rag'batlantirish, ta'limiy mahsulotlar yaratish, o'z metodik qarorlarini tahlil qilish va raqamli muhitda akademik halollikka amal qilish kabi kasbiy sifatlarini ham qamrab olishi bilan ahamiyatlidir.

Modelning amaliy qiymati shundaki, u pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi adabiyot, o'qish metodikasi, pedagogik texnologiya, raqamli ta'lim va malakaviy amaliyot kurslari o'rtasida mazmuniy integratsiyani ta'minlash, maxsus modullar, elektiv kurslar, elektron resurslar, mikrota'lim mashg'ulotlari va portfolioga asoslangan baholash tizimini yaratish uchun mustahkam metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 23.09.2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni. PF-6079-son, 05.10.2020.
3. Domínguez-González M. Á., et al. Teacher digital competence: Keys for an educational future based on scientific evidence. *Contemporary Educational Technology*, 2025.
4. Haleem A., et al. Understanding the role of digital technologies in education: A review. *Sustainable Operations and Computers*, 2022.
5. Вйготский Л. С. Мышление и реч. Москва.
6. Зимняя И. А. Ключеве компетенции как результат образования. Москва, 2004.
7. Хуторской А. В. Компетентности подход в образовании. Москва, 2005.
8. Слостенин В. А. Педагогика. Москва: Академия, 2002.
9. Qosimov B., Yo'ldoshev Q., va boshqalar. Adabiyot o'qitish metodikasiga oid manbalar. Toshkent.
10. Safarova R., G'ulomova X., va boshqalar. Boshlang'ich ta'lim va o'qish savodxonligi metodikasiga oid tadqiqotlar. Toshkent.
11. Halliday M. A. K. *Language as Social Semiotic*. London: Edward Arnold, 1978.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.